# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№3
MAXSUS SON

## BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2026

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr.*
*2026-yil, aprel-may.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Oʻz.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*



**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI)....21
**Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich**

YASHIL INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI....26
**Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi**

RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI....30
**Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich**

ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА....34
**Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза**

O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI....39
**Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi**

СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ....44
**Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исматиллаевна**

O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI....50
**Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich**

MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI....57
**Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li**

RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI....62
**Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi**

ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ....68
**Насиров Дилшод Фархадович, Тохирова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна**

FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI....74
**Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li**

AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT....80
**Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich**

ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI....87
**Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich**

RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI....92
**G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li**

DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE....104
**Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI...112
**Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov**

O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI...119
**Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich**

TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI...124
**Samadova Solik qizi, Normurodov Husan**

TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI...130
**Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li**

ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI...137
**Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.**

XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISH, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI...141
**Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich**

URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI...147
**Iskandarov Qudrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi**

IQTISODIY ATAMALARNING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI...154
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya**

O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI...158
**Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li**

RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI...164
**Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi**

SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR...170
**Mo'ydinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiyevich**

ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA...175
**Axmedov Xasan Ruzibayevich, Ruzibayeva Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi**

SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH...182
**Salayeva Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li**

THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS...187
**Murodova Feruzakhon Talatovna**

GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH...194
**Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.**

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI...199
**Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li**

O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI...204
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich**

ZAMONAVIY TASHKILOTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.......208
**Makhmudov Sunnatjon Abdujabbor o‘g‘li, Ashurova Jasmina Jo‘ra qizi**

O‘ZBEKISTONDA ATROF-MUHIT IQTISODIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH MASALALARI.......213
**Boltayeva Sh.B., Hayitova Charos, Latipova Jasmina**

O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.......216
**Izzatillayeva Munisabonu Ikromjon qizi, Yangiboyev Sirojddin Juramurodivich**

O‘ZBEKISTON EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSIYANING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.......220
**Ashurova Nilufar Yuldosh qizi, Xurshidjon Tillayev Sulaymon o‘g‘li**

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH.......225
**Iskenderov Axmet Maksetbaevich, Irisaliyeva Kamola Otabekovna**

MUQIMIY IJODIDA SAYOHAT MOTIVLARI VA ULARNING ADABIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.......228
**Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Muxitdinova Muxlisa Sadriddinovna**

HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE.......233
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Komilov Sarvar Firdavs ugli**

O‘ZBEK TILINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.......237
**Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Faruxov Shoxrux Tolibovich**

УЧЁТ ТРУДА И ЗАРАБОТНОЙ ПЛАТЫ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРИКЛАДНЫЕ АСПЕКТЫ.......242
**Махмуджанов Мухаммадали Максуджан угли, Абдурашидова Марина Сагатовна**

O‘ZBEKISTONNING GLOBAL IQTISODIYOTDAGI ROLI.......246
**Xudoynazarov Murod Maxmudjanovich, Ramanberdiyev Umidbek Jamoladdin o‘g‘li**

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА: АНАЛИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ НА ПРИМЕРЕ НИУ ВШЭ.......249
**Бозорова Фарангиз Шерзод кизи, Мусаев Озоджон**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.......255
**Sharipboyev Husanboy Marks o‘g‘li, Abduraxmonova Aqida Fayzulla qizi**

NAVOIY ERKIN IQTISODIY ZONASINING NAVOIY VILOYATI IQTISODIYOTIDA TUTGAN O‘RNI.......260
**Raxmonov Ilg‘or G‘aybullayevich, Zuvaydullayeva Shahzoda Sayfiddin qizi**

KORXONALARDA KASSADAGI PUL MABLAG‘LARI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI.......265
**Isroilov Zuhriddin, Toshimov Azizbek**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.......269
**Karimova Latofat Sadullayevna, Jabborov Abdulla Akbar o‘g‘li**

O‘ZBEKISTON FUQAROLARINING MEHNAT MIGRATSIYASIDA HUQUQIY HIMOYASINI TA’MINLASH.......276
**Shamsiddinov Yahyobek Anvar o‘g‘li, Musayev Ozodjon**

IQLIM O‘ZGARISHINING IQTISODIYOTGA TA’SIRI: QISHLOQ XO‘JALIGI VA SANOATDAGI XAVF VA YO‘QOTISHLAR.......282
**Sohibov Azizbek Dilshod o‘g‘li, Karimova Komila Daniyarovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

DIGITAL ECONOMY AND INNOVATIVE DEVELOPMENT STRATEGIES ........ 287
**Samadqulov Muhammadjon Islom ugli, Ismoilov Sulaymon Ahmadjon ugli**

МЕТОДИКА ПРОВЕДЕНИЯ АУДИТОРСКОГО АНАЛИЗА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ИМ АУДИТОРСКОЙ ОЦЕНКИ ........ 290
**Мирзаева Сабина Хушнудовна, Хайдарова Дилдора Жахонгир кизи**

O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING AHOLINING REAL DAROMADLARIGA TA'SIRI ........ 294
**Abdullayeva Zulfiya Izzatovna, Ashurova Jasmina Jo'ra qizi**

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR VA DAVLAT STANDARTLARI ASOSIDA LIKVIDLIK RISKLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI ........ 298
**Quvondiqov Rozimurod, Toshimov Azizbek**

ECONOMIC EFFICIENCY OF FINANCING INFRASTRUCTURE PROJECTS THROUGH PUBLIC–PRIVATE PARTNERSHIPS ........ 305
**Djurayev Olimjon Narkulovich, Ermuminov Elbek Erkin ugli**

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТАБАЧНОЙ ПРОДУКЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ДОХОДЫ ........ 312
**Акбарова Лайло Упашевна, Атамуратов Атабек Айбекович**

THE ROLE OF THE STATE BUDGET IN FINANCING THE EDUCATION SYSTEM ........ 319
**Sarsenbaev Bakhitjan Abdulgazievich, Jenisbaeva Khurziya Yerkinbay kizi, Khayirbaeva Balzira Parakhat kizi**

DAVLAT BUDJETI PROGNOZINI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT VA GENDER TENGLIGI KO'RSATKICHLARINING AHAMIYATI ........ 324
**Ismoilova Mohiraxon Iqbol qizi, Sharapova Mashxura Azadovna**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR (TMZ) HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 330
**Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Botirjonova Bonu Baxtiyor qizi**

KORXONALARDA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ KASSADAGI PUL MABLAG'LARI VA PUL EKVIVALENTLARI BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITI ........ 336
**Toshimov Azizbek, Temirova Rushana**

ОСОБЕННОСТИ УЧЁТА ЭКСПОРТНЫХ ОПЕРАЦИЙ ПРИ РЕАЛИЗАЦИИ ХЛОПКОВОЙ ПРЯЖИ НА УСЛОВИЯХ ОТСРОЧКИ ПЛАТЕЖА ........ 340
**Туйчиев Шахбозбек Нодирбек угли, Абдурашидова Марина Сагатовна**

TURIZM VA REKREATSIYA UCHUN BIOKLIMATIK SHAROITLARNI BAHOLASH ........ 344
**Usmanova Zumrad Islamovna, Suvonov Farrux**

ONLAYN BOZORLARDA RAQOBAT STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH ........ 347
**Nortojiyeva Sevinch Raximjonovna, Xashimov Abdukomil Risbekovich**

XOMASHYO, MATERIALLAR HISOBI VA AUDITINING MILLIY HAMDA XALQARO JIHATLARI ........ 353
**Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Samandarov Ulug'bek Samandarovich**

"SAM INNOPRODUCT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI ........ 358
**G'afforov Shaxzod Uktam o'g'li, Xudaynazarova Dilnoza G'afurovna**

"SAM INNOPRODUCT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA XARAJATLAR HISOBINI YAXSHILASH ........ 364
**Nazarova Durdona Rahimjonova, Xudaynazarova Dilnoza G'afurovna**

"SAM INNOPRODUCT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA XARAJATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 369
**Obloqulova E'zoza Elyor qizi, Xudaynazarova Dilnoza G'afurovna**

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОЙ ПОДДЕРЖКИ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ........ 374
**Рустамов К.М., Каримова А.М.**

EDUCATION LEVEL AND EMPLOYMENT RATE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS WITH GDP PER CAPITA (PPP) AS A CONTROL VARIABLE (2015–2024) ........ 378
**Goziyev Murodjon Shokirjonovich, Bahodirova Muhlisa Rustamjon qizi**

XOMASHYO VA MATERIALLAR SARFI VA UNING MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILISHI AUDITI ........ 386
**Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Tajiyeva Nargiza Abdunabi qizi**

YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY MODELLARI ........ 391
**Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich**

# YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY MODELLARI



**Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-bosqich talabasi
https://orcid.org/0009-0004-6707-9697
sharipboyevhasanboy1@gmail.com

Ilmiy rahbar:
**Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
iqtisodiot fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining makroiqtisodiy modellari, ularning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy o'sish modellari, ekologik barqarorlik tamoyillari hamda davlat siyosatining iqtisodiyotga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ekologik muammolarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda makroiqtisodiy modellarning o'rni o'rganiladi. Maqola doirasida turli mamlakatlar tajribasi va yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyalarining samaradorligi ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotni shakllantirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda makroiqtisodiy yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, makroiqtisodiy modellashtirish, CGE modeli, DSGE modeli, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, yashil investitsiyalar, uglerod neytralligi.

Abstract: This article analyzes macroeconomic models of the transition to a green economy, their theoretical foundations, and practical significance. The study covers economic growth models aimed at developing a green economy, the principles of environmental sustainability, and the impact of state policy on the economy. It also examines the role of macroeconomic models in reducing environmental problems, ensuring the efficient use of resources, developing renewable energy sources, and promoting economic growth. The article also examines the experience of different countries and the effectiveness of green economy transition strategies. The results of the study show the importance of macroeconomic approaches in forming a green economy and ensuring sustainable development.

Key words: green economy, macroeconomic modeling, CGE model, DSGE model, sustainable development, renewable energy, green investments, carbon neutrality.

Аннотация: В данной статье анализируются макроэкономические модели перехода к зелёной экономике, их теоретические основы и практическое значение. Исследование охватывает модели экономического роста, направленные на развитие зелёной экономики, принципы экологической устойчивости и влияние государственной политики на экономику. Также рассматривается роль макроэкономических моделей в снижении экологических проблем, эффективном использовании ресурсов, развитии возобновляемых источников энергии и обеспечении экономического роста. В статье также рассматривается опыт различных стран и эффективность стратегий перехода к зелёной экономике. Результаты исследования показывают важность макроэкономических подходов в формировании зелёной экономики и обеспечении устойчивого развития.

Ключевые слова: зелёная экономика, макроэкономическое моделирование, модель CGE, модель DSGE, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, зелёные инвестиции, углеродная нейтральность.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida so'nggi yillarda yuz berayotgan global ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, atrof-muhit ifloslanishining ortishi, bioxilma-xillikning kamayishi va energiya resurslariga bo'lgan talabning oshishi an'anaviy iqtisodiy rivojlanish modelining kamchiliklarini yaqqol namoyon etmoqda. Ayniqsa, sanoatlashuv va iqtisodiy o'sishning uzoq yillar davomida tabiiy resurslardan intensiv foydalanishga asoslanganligi ekologik muvozanatning buzilishiga sabab bo'ldi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy taraqqiyotning ekologik jihatdan barqaror modeliga o'tish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy tizim hisoblanadi. Ushbu model iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy tenglik tamoyillariga asoslanadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u iqtisodiy tizimning tarkibiy o'zgarishlarini, institutsional islohotlarni, texnologik yangilanishlarni va investitsiya siyosatini takomillashtirishni talab qiladi. Mazkur jarayonda makroiqtisodiy modellar muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida xizmat qiladi. Ular iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish, davlat siyosatining ta'sirini baholash va uzoq muddatli iqtisodiy natijalarni prognoz qilish imkonini beradi.

Yashil iqtisodiyotga o'tishning makroiqtisodiy modellarini o'rganish iqtisodiyotda yuz beradigan strukturaviy o'zgarishlarni, investitsiya oqimlarini, bandlik darajasini, energiya iste'molini va ekologik ko'rsatkichlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, yashil o'sish modeli, hisoblanadigan umumiy muvozanat modeli (CGE), dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli (DSGE), ekologik Keynes modeli kabi yondashuvlar yashil transformatsiyaning iqtisodiy natijalarini baholash imkonini beradi. Ushbu modellar yordamida ekologik siyosat choralarining iqtisodiyotga ta'siri, energiya samaradorligi va investitsiyalarning iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqligi aniqlanadi.

Dunyoning ko'plab davlatlari yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini iqtisodiy rivojlanish siyosatining muhim qismi sifatida qabul qilgan. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, "yashil" investitsiyalarni kengaytirish, ekologik soliqlarni joriy etish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa makroiqtisodiy siyosat va ekologik rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda o'rganishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotning ekologik barqarorligini ta'minlash, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini amalga oshirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik muammolarni kamaytirish bo'yicha qator dasturlar ishlab chiqilgan. Shu sababli yashil iqtisodiyotga o'tishning makroiqtisodiy modellarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularning amaliy ahamiyatini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi Pearce, Markandya va Barbier (1989) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uning zamonaviy talqini UNEP (2011) hisobotida ifodalangan: "insonlar farovonligi va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga atrof-muhit xavfini sezilarli darajada pasaytiruvchi iqtisodiyot" [1].

Keyinchalik OECD (2023) yashil o'sishni "iqtisodiy o'sish va taraqqiyotni ta'minlash bilan birga tabiiy aktivlar xizmatlarini saqlab qoluvchi" jarayon sifatida ta'rifladi [2].

Xalqaro Valyuta Fondi (IMF, 2024) tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, uglerod solig'ini tonna $CO_2$ uchun 75 AQSh dollaridan 150 dollargacha oshirish global issiqxona gazlari emissiyasini 2030-yilga qadar 25–30% ga kamaytirishga imkon beradi. Bu esa yashil soliq islohoti modelining makroiqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi [3].

Yashil iqtisodiyotga o'tishni modellashtirish uchun uchta asosiy yondashuv qo'llaniladi:

1. CGE (Computable General Equilibrium) modeli – umumiy muvozanat modeli. Energiya sohasidagi soliq islohotlari, subsidiyalar va savdo siyosatining o'zaro bog'liq makroiqtisodiy oqibatlarini baholash uchun ishlatiladi. Jahon banki CGE modeli (ENVISAGE) 2024-yilda O'zbekiston uchun ham moslashtirildi.
2. DSGE (Dynamic Stochastic General Equilibrium) modeli – dinamik stoxastik umumiy muvozanat modeli. Iqlim siyosatining uzoq muddatli (10–50 yillik) ta'sirlarini, texnologik shoklar va energiya narxlari o'zgarishini o'rganadi.
3. I-O (Input-Output) modeli – Leontyev tarmoqlararo modeli. Milliy iqtisodiyotning tarmoqlararo bog'liqligini hisobga olgan holda yashil sektorning multiplikativ ta'sirini va ish o'rinlari yaratilishini baholaydi.

Nordhaus (2018), Nobel mukofoti sovrindorining DICE (Dynamic Integrated Model of Climate and the Economy) modeli iqlim zararining optimallashtirish bilan integratsiyasini ta'minlagan bo'lsa, keyinroq Burke va

boshq. (2023) ushbu modelni rivojlantirgan holda issiqlik ta’sirining YaIM o‘sishiga nolinear ta’sirini isbotladi — harorat 1°C oshishi rivojlanayotgan mamlakatlarda YaIMni 2,5% ga pasaytirishi mumkin [4].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o‘tishning makroiqtisodiy modellarini o‘rganish va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tahlil qilish uchun turli ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini barqaror rivojlanish konsepsiyasi, ekologik iqtisodiyot nazariyasi va makroiqtisodiy modellashtirish yondashuvlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv usullar qo‘llanildi. Ushbu usullar orqali yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, rivojlangan davlatlar tajribasi hamda iqtisodiy va ekologik ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi.

Shuningdek, tadqiqotda yashil iqtisodiyotga o‘tishning asosiy makroiqtisodiy modellari — yashil o‘sish modeli, CGE, DSGE va ekologik Keynes modeli tahlil qilindi. Mazkur modellar iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar, energiya iste’moli va ekologik omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni baholash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyotga o‘tish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. An’anaviy iqtisodiy modelda iqtisodiy o‘sish asosan tabiiy resurslardan intensiv foydalanish, sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish va energiya iste’molining oshishi hisobiga amalga oshirilgan. Natijada atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o‘zgarishi va ekologik muammolar yuzaga kelgan. Shu sababli yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy taraqqiyotning yangi modeli sifatida shakllanib, mamlakatlarning makroiqtisodiy siyosatida muhim o‘rin egallamoqda.

Makroiqtisodiy modellar orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlardan biri “yashil o‘sish modeli” hisoblanadi. Ushbu model iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlagan holda ekologik bosimni kamaytirishni nazarda tutadi. Modelning asosiy tamoyili iqtisodiy o‘sishning tabiiy resurslardan foydalanish hajmiga bog‘liqligini kamaytirishdan iborat. Bu jarayon iqtisodiyotda “dekapling” (decoupling) deb ataladi. Dekapling natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi oshishda davom etadi, biroq energiya sarfi va ekologik zarar kamayadi.

O‘zbekistonning 2021–2025-yillardagi asosiy yashil iqtisodiyot makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari aks ettiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi (2025) va Jahon banki (2025) ma’lumotlari asosida tuzilgan ushbu jadvalda O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, 2021–2025-yillar, keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlari: 2021–2025-yillar dinamikasi

| Ko‘rsatkich | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|
| YaIM o‘sishi (%) | 7.4 | 5.7 | 6.3 | 6.5 | 6.8 |
| Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) | 11.2 | 12.3 | 13.8 | 15.2 | 17.0 |
| Yashil investitsiyalar (mln $) | 740 | 1 040 | 1 480 | 1 980 | 2 600 |
| $CO_2$ emissiyasi (mln t) | 113.5 | 116.2 | 118.4 | 120.1 | 121.8 |
| Energiya intensivligi (toe/YaIM) | 0.41 | 0.38 | 0.35 | 0.32 | 0.29 |
| Quyosh elektr quvvati (GW) | 0.2 | 0.5 | 1.1 | 2.3 | 3.8 |

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sish bilan uglerod emissiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikning pasayishi rivojlangan mamlakatlarda ancha yuqori darajada kuzatiladi. Masalan, so‘nggi yillarda ko‘plab rivojlangan davlatlarda YaIMning o‘sishi bilan birga karbonat angidrid chiqindilari hajmi nisbatan kamaygan. Bunga energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushining ko‘payishi va texnologik innovatsiyalar sabab bo‘lgan.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishning yana bir muhim makroiqtisodiy modeli CGE (Computable General Equilibrium — hisoblanadigan umumiy muvozanat modeli) hisoblanadi. Ushbu model iqtisodiyotning barcha sektorlarini o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Model orqali davlat tomonidan yashil investitsiyalarni ko‘paytirish, ekologik soliqlar joriy qilish yoki subsidiyalarni qayta taqsimlashning iqtisodiyotga ta’siri baholanadi.

IRENA (2025) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda yangi o‘rnatilgan quvvatlarning 75 foizi quyosh va shamol elektr stansiyalari hisobiga to‘g‘ri keldi. Shamol energiyasi (25,8 foiz) ham sezilarli darajada o‘smoqda. O‘zbekiston uchun bu tarkib ayniqsa muhim: mamlakatimizda gidroenergetika salohiyati cheklangan, biroq

quyosh radiatsiyasi jahondagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, yiliga 2 500–3 000 soat quyosh nurini qabul qiladi [6].




2-diagramma. O‘zbekistonda yashil investitsiyalar manbalarining tarkibi, 2024 yil (%) [7]

CGE modeli asosida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekistonda energiya subsidiyalarini bosqichma-bosqich bekor qilish va hosil bo‘lgan mablag‘larni yashil infratuzilmaga yo‘naltirish YaIM o‘sishini qisqa muddatda 0,4 foizga pasaytirsa-da, 2030-yilga kelib bu yo‘qotish qoplanadi va qo‘shimcha 1,2 foiz o‘sish ta’minlanadi [8].

DSGE modeli bo‘yicha tahlillar ekologik soliqlar joriy etilganda iqtisodiyotning ayrim an’anaviy tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi qisqarishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qazib olinadigan yoqilg‘i sanoati va yuqori emissiyali tarmoqlarda qisqa muddatli salbiy ta’sirlar kuzatiladi. Biroq qayta tiklanuvchi energiya, yashil texnologiyalar va ekologik xizmatlar sohasida yangi iqtisodiy faollik shakllanadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda ekologik Keynes modeli ham muhim o‘rin tutadi. Mazkur model davlat xarajatlari va investitsiyalarining iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganadi. Davlat tomonidan yashil infratuzilmaga, energiya tejovchi texnologiyalarga va ekologik loyihalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, yashil investitsiyalarning multiplikativ ta’siri an’anaviy investitsiyalarga nisbatan yuqori bo‘lishi mumkin. Chunki bunday investitsiyalar bir vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘sish, bandlik va ekologik samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, quyosh va shamol energetikasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar energetika, qurilish, transport va texnologik xizmatlar sektorlarida qo‘shimcha talabni yuzaga keltiradi.

Xalqaro tajribalar tahlili yashil iqtisodiyotga o‘tishda davlat siyosati muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Soliq imtiyozlari, ekologik standartlar, “yashil” kreditlar, subsidiya tizimi va investitsion dasturlar makroiqtisodiy transformatsiyaning asosiy vositalari hisoblanadi. Davlat tomonidan olib borilgan samarali siyosat yashil iqtisodiyotning rivojlanishini tezlashtiradi.

O‘zbekiston sharoitida ham yashil iqtisodiyotga o‘tishning makroiqtisodiy modellarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik investitsiyalar hajmini ko‘paytirish istiqbolda iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, makroiqtisodiy modellar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar iqtisodiyotning ekologik transformatsiyasini tezlashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar yashil iqtisodiyotga o‘tishning makroiqtisodiy modellaridan foydalanish nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichini shakllantirish uchun ham muhim vosita ekanligini ko‘rsatdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda jahon iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Iqtisodiy o'sishning an'anaviy modeli uzoq yillar davomida tabiiy resurslardan intensiv foydalanish va ishlab chiqarish hajmini oshirishga asoslangan bo'lsa, bu jarayon ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va atrof-muhit ifloslanishining kuchayishiga olib keldi. Shu sababli iqtisodiy taraqqiyotning yangi yondashuvi sifatida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ishlab chiqildi hamda uning makroiqtisodiy asoslarini shakllantirish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Mazkur tadqiqot doirasida yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy makroiqtisodiy modellari, jumladan, yashil o'sish modeli, hisoblanadigan umumiy muvozanat (CGE) modeli, dinamik stoxastik umumiy muvozanat (DSGE) modeli hamda ekologik Keynes modeli tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu modellar iqtisodiyotning turli sektorlarida ekologik va iqtisodiy omillarning o'zaro ta'sirini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, yashil iqtisodiyotga o'tish dastlabki bosqichlarda ma'lum moliyaviy xarajatlarni talab qilishi mumkin. Chunki yangi texnologiyalarni joriy qilish, energetika tizimini modernizatsiya qilish va yashil infratuzilmani rivojlantirish katta investitsiyalarni talab etadi. Biroq uzoq muddatli istiqbolda ushbu xarajatlar iqtisodiy samaradorlikning oshishi, energiya xarajatlarining kamayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va ekologik muammolarning qisqarishi orqali qoplanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pearce, D., Markandya, A., & Barbier, E. Blueprint for a Green Economy. London: Earthscan, 1989.
2. United Nations Environment Programme. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP, 2011.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development. Green Growth and Sustainable Development. Paris: OECD Publishing, 2023.
4. Parry, I., Black, S., & Roaf, J. Proposal for an International Carbon Price Floor Among Large Emitters. IMF Staff Climate Note 2021/001. Washington, DC: International Monetary Fund, 2021.
5. Nordhaus, W. D. Projections and Uncertainties about Climate Change in an Era of Minimal Climate Policies. American Economic Journal: Economic Policy, 2018, Vol. 10, No. 3, pp. 333–360.
6. International Renewable Energy Agency. Renewable Capacity Highlights 2025. Abu Dhabi: IRENA, 2025.
7. World Bank Group. Uzbekistan Country Climate and Development Report. Washington, DC: World Bank, 2023.
8. World Bank. World Development Indicators: Uzbekistan. Washington, DC: World Bank, 2025.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori. 2019-yil 4-oktabr. https://lex.uz/docs/-4539502
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qarori. 2022-yil 2-dekabr. https://lex.uz/docs/-6303230

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li


## 3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami


© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz